

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANINI
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi
Kamalova Dilobar Tairovna*

Annotatsiya

Maqolada ona tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish asoslari haqida ma’lumot berilgan.Ona tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari yoritilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar

Fonetika, fonologiya, leksikologiya, frazeologiya, so‘z yasalishi va etimologiya, grammatika – morfologiya,sintaksis, stilistika, izchillik,prinsip

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo‘lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tadbiqan (muvofig ravishda) o‘rgatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish grammatika, imlo va unga bog‘liq holda nutq o‘stirish metodikasinigina emas, balki xatsavod o‘rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish metodikalarini ham o‘z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni ajaradi: a) boshlang‘ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya’ni kursning (xat-savod o‘rgatish, o‘qish, gram matika, imlo, nutq o‘stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash; b) o‘qish va yozuvdan bilim va ko‘nikmalarning shakllanishi jarayonini ham da bu jarayonda o‘quvchilar duch keladigan qiyinchiiklarni o‘rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to‘g‘rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish; d) ona tilidan beriladigan o‘quv materialini o‘quvchilar aniq tushunishi va puxta o‘zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o‘quvchilam ing umumiylara taraqqiyotiga, ya’ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o‘ylashini, nutqini o‘stirishga yordam beradigan m etod va vositalarni ishlab chiqish; e) ona tilini o‘rgatish bilan bog‘liq holda maktablar oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o‘quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta’limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonun va shu asosda yaratilgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ buning yorqin dalilidir. Darsni tashkil

etish, boshqarish, nazorat qilishda o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta’lim prinsplari hisoblanadi. Bu prinsplar har fanda o‘ziga xos tadqiq etiladi. Biz quyida ona tili fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan prinsplar xususida so‘z yuritamiz. Tizimlilik va izchillik prinspi. O‘zbek tili o‘qitishda tizimlilik va izchillik prinsipi muhim o‘rin tutadi. Til fanining bo‘limlarini bir tartibda o‘rganish shu prinspga mos tushadi. Ona tili fanini o‘rgatishda dastlab fonetika, leksika haqida, shundan so‘ng so‘z yasash, so‘z tarkibi, morfologiya va sintaksis haqida ma’lumot beriladi. Bu esa yuqoridagi prinspga amal qilinganligini bildiradi. Ona tili o‘qitishda nazariyani amaliyatga bog‘lash ham muhimdir. Buning uchun fonetika va grammatikadan har bir mavzu orfografiya yoki punktuatsiya bilan, orfoepiya yoki lug‘at bilan bog‘liq holda o‘tilishi lozim. Bu prinspni amalga oshirish uchun grammatic qoidalarga mos misollarni jonli nutqdan olish, qoidalarni mustahkamlashda o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ona tili o‘qitishda onglilik ham muhim o‘rin egallaydi.¹

Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi. Pedagogik psixologiya kishiga ta’lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi. U o‘quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o‘rganadi.

Maktab ta’limidagi har bir o‘quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatdan ham, ona tili o‘qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatları o‘sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma’lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o‘rganadi va hok. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o‘qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergen ma’lumotlariga tayanadi. Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog‘lash ayniqsa boshlang‘ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o‘quv faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘p odat va ko‘nikmalari hali tarbiyalanmagan bo‘ladi. Ona tili o‘qitish metodikasi o‘zbek tilining ma’lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so‘z yasalishi va etimologiya, grammatika - morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi

¹ Nodira Ma’murjon qizi Erkinova Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi

hisoblanadi. Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishslashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi. Leksikologiyani bilish mакtabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no bo'yoqlari ustida ishslash) ni to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir. So'zning tarkibi va so'z yasalishini o'rganishda metodikaga so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi. Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'limgan o'quvchilarda imlo va punktuatsiyadan ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, amm o'm etodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning o'quvchilarga ta'sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va sujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviri vositalarini hisobga olishi zarur. Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari. O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzuksiz ta'limni ta'm inlash borasidagi islohotlarni amaliyatga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika // M.X. To'xtaxo'jayeva umumiyl tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 252-257;
2. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008. – B.153-155;
3. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 1995;
4. Nodira Ma'murjon qizi Erkinova Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti talabasi